Ilmiy tadqiqotlar va ularning yechimlari jurnali
Aoka guvohnoma № 323759 ISSN: 3060-4818

# BILMASLIK JAVOBGARLIKDAN OZOD QILMAYDI - ADOLATMI YOKI SHAFQATSIZLIK?

**Azimova Sevara Azizxon qizi**
Toshkent davlat yuridik universiteti,
Biznes huquqi va sud himoyasi fakulteti 2-kurs talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.24339440

Odam o‘z hovlisida qurilish ishlarini boshladi, lekin unga ruxsat olish kerakligini bilmaydi. Yoki chet elga ishlash uchun ketayotgan yigit yangi qoidani eshitmagan. Yoki keksa ayol soliq to‘g‘risidagi qonunning o‘zgarganidan bexabar. Ularga qarshi javobgarlik choralari qo‘llanganda eng birinchi javob odatda bitta: “**Bilmaslik javobgarlikdan ozod qilmaydi**.”

Bu jumla sizga tanish, chunki u har bir huquq tizimining zaminida yotadi. Lekin tanish bo‘lgani bilan u hamma uchun bir xil adolatli emas. Bu maqola ana shu savolga javob izlaydi. Qoida adolatlimi yoki shafqatsizmi?

Qoidaning lotincha ko‘rinishi **ignorantia juris non excusat**, ya’ni «huquqni bilmaslik uzr emas». U qadimgi Rim huquqidan vujudga kelgan. Rim huquqshunoslari faktni bilmaslik (masalan, mol o‘g‘irlanganini bilmay sotib olish) uzr bo‘lishi mumkinligini, qonunni bilmaslik esa uzr bo‘lmasligini ajratgan.

XIX asrda amerikalik huquqshunos Oliver Wendell Holmes “The Common Law” (1881) kitobida qoidaning asosini ochiq tushuntirgan: agar «bilmadim» degan dalil sudda qabul qilinsa, sud har bir ishda odam rostdan ham bilmaganmi yoki yo‘qmi, degan isbotlab bo‘lmaydigan savolni hal qilishi kerak bo‘lardi. Eng yomoni, odamlar qonunni o‘rganish o‘rniga «bilmaslik»ni himoya qilib olishga harakat qilardi. Holmes fikricha, jamiyat umumiy manfaatni yakka shaxsning ba’zan nohaq zarari ustiga qo‘yishga majbur, aks holda qonun ishlamay qoladi.

Huquqshunoslar buni **huquqiy fiksiya** deb ataydi, ya’ni davlat “hamma qonunni biladi” deb aslida bunday emasligini yaxshi bilsa ham faraz qiladi . Bu fikrga qarshi kimdir “bu yolg‘on-ku” deyishi mumkin. Lekin fiksiya yolg‘on emas, huquq tizimi ishlashi uchun qabul qilingan qoidadir.

Shuingdek, qoida hammaga bir xil qo‘llanadi. Bilmagan odam ozod bo‘lsa, bilganlar noqulay ahvolga tushar edilar. Ular qonunga rioya qilish uchun mehnat qilgan, “bilmayman” deganlar esa buni qilmay qutulgan bo‘ladi. Ya’ni ularning aybi mazkur vaziyatlarda qonunni bilganligi bo‘lib qolardi. Bundan tashqari, insonning ichki holatini, ya’ni u rostdan ham bilmaganini isbotlab bo‘lmaydi. Natijada qonun “bilganlar uchungina” ishlaydi va u hurmatini yo‘qotadi.

Lekin aksariyat davlatlarda qoida mutlaq emas. Misol uchun **Germaniya** Jinoyat kodeksining 17-§ qoidasiga ko‘ra, agar shaxs qilmishining taqiqlanganini anglamagan bo‘lsa va bu xatoni oldini olib bo‘lmasa, u aybsiz hisoblanadi. Federal Oliy sud buni 1952-yilgi qarorida tasdiqlagan bo‘lib, qoidani bilmaslik emas, balki **oldini olib bo‘lmaydigan** bilmaslik uzrlidir. Xususan, **AQShda** ham «Lambert v. California» (1957) ishida Los-Anjeles shahar qoidasiga ko‘ra, sudlangan shaxslar shaharda ro‘yxatdan o‘tishi shart edi. Lambert ismli ayol bu majburiyatdan bexabar bo‘lgan. Oliy sud uni javobgarlikka tortishni odil sudlov tamoyiliga zid deb topdi, chunki unga ogohlantirish berilmagan va qoidabuzarlik o‘z-o‘zidan “yomon” emas edi. Bu istisno kam uchraydi lekin shunda ham muhim hisoblanadi. “Cheek v. United States” (1991) ishida esa soliq qonunchiligi murakkabligi sababli, soliq to‘lamaslikda “qasd” bor-yo‘qligi masalasida, soliq to‘lovchi qonunni chin ko‘ngildan noto‘g‘ri tushungan bo‘lsa, bu qasdni inkor etishi mumkinligini tan oldi. Namunaviy Jinoyat kodeksi (2.04(3)-modda) esa, agar shaxs rasmiy bayonotga tayanib harakat qilgan bo‘lsa, javobgarlikdan himoya berish normasi ham mavjud.

Bundan chiqadigan xulosa shuki huquqning o‘zi qoidaning qattiqligini yumshatuvchi vositalarni ham yaratgan.

Bu qoidadaning O‘zbekistondagi mazmuninida qaraydigan bo‘lsak, qonunni bilish uchun birinchi shart: u e’lon qilingan bo‘lishi kerak. 30-moddaga ko‘ra hech kim rasman e’lon qilinmagan qonun asosida hukm qilinishi, jazoga tortilishi, mol-mulkidan yoki biron-bir huquqidan mahrum etilishi mumkin emas. 99-moddaning oxirida aytilishicha, qonunlarning va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarning e’lon qilinishi ular qo‘llanilishining majburiy sharti. Ya’ni davlat qonunni ommaga yetkazmagan bo‘lsa, “bilmaslik” haqida gapirishning o‘zi mantiqqa zid bo‘lib qoladi.

Bundan tashqari shubha insonga foydasiga ham hal qilinadi. Aynan Konstitutsiyaning 20-moddasiga zanar tashlasak inson va davlat organlari o‘rtasidagi munosabatlarda qonunchilikdagi barcha ziddiyatlar va noaniqliklar inson foydasiga talqin etilish normasini ko‘ramiz. Bunda qonunning o‘zi noaniq bo‘lsa, buning zarari odamga emas, davlatga yuklanadi. Bu ham bilmaslikning ma’lum bir turini ham yumshatadi, ya’ni odam qonunni o‘qigan, lekin u noaniq yozilgan bo‘lsa bu shaxsning aybi emasdir.

**Xo‘sh, bu adolardanmi yoki shafqatsizlikmi?**

Savolga “ha” yoki “yo‘q” deb javob berish oson, lekin aslida u boshqacha: **qoida bir vaqtning o‘zida adolatli ham, shafqatsiz ham emas. Adolatli bo‘lishi uchun u bir necha shartga tayanadi.**

1. Qonun rasmiy e’lon qilingan, hamma uchun ochiq manbada (masalan, lex.uz) mavjud bo‘lishi kerak.
2. Lon Fuller huquqning ichki axloqi haqida yozganidek (1964) qonun aniq, tushunarli, bir-biriga zid bo‘lmagan, tez-tez o‘zgarmaydigan va bajarish mumkin bo‘lgan talablarni qo‘yishi shartdir.
3. Ko‘p o‘zgarishlar ham bilmaslik uchun yetarli sababdir. Davlat o‘zgartirishlarni oldindan ommaga ochiq xabar qilishi, yangi qoidalarga moslashish uchun muddat berishi kerak.
4. Tushuntirish, huquqiy ma’lumot, bepul yuridik yordam ham ta’minlanishi zarur.
5. Jiddiy jinoyat va oddiy ma’muriy qoidabuzarlik uchun «bilmaslik» bir xil qaralmasligi kerak. Rasmiy qoidabuzarlikda, ayniqsa birinchi marta va yaxshi niyat bilan sodir etilganda, jazo yumshoq yoki ogohlantirish bilan chegaralanishi zarur.

Shu shartlar bajarilgandagina qoida adolatli bo‘ladi. Shunda davlat o‘z vazifasini bajargan, odam esa o‘ziniki qilgan bo‘ladi.

Bu masalada huquqshunoslar alohida o‘ringa ega. Ular bir tomondan, “bilmaslik”ning qimmatga tushishini ko‘rib turadi, ikkinchi tomondan, odamlar o‘rtasida huquqiy savodxonlikni oshirish imkoniyatiga egalar. Maslahat berish, tushuntirish, ommaviy yuridik ta’lim, qonun loyihalari muhokamasida “oddiy odam bu normani tushunadimi?” deb so‘rash kabilar qoidani adolatli qiladigan kundalik ishlardir.

Xulosa qilib aytganda, “Bilmaslik javobgarlikdan ozod qilmaydi” qoidasi jamiyatimiz uchun zarurdir va busiz qonunlar ishlamaydi. Lekin u mutlaq va rahmsiz ham bo‘lmasligi kerak. Uning haqiqiy sinovi qoidaning o‘zida emas, davlatning o‘z majburiyatlarini qanday bajarishida: qonunni e’lon qilish, tushunarli yozish, barqaror saqlash va odamlarga uni bilish imkonini berish.

Odamlar qonunni bilishi kerak, degan talab ularga qonunni bilishga imkon beradigan davlatga tayanadi. Bu ikki tomonlama bitim. Birinchi tomon o‘z ishini qilmasa, ikkinchisidan to‘liq talab qilish adolatli bo‘lmaydi.